



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING  
BUYRUG‘I**

**Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining fan o‘quv dasturlarini tasdiqlash  
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son Farmoni hamda “Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta’lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, umumta’lim fanlari bo‘yicha o‘quv dasturlarini amaliyotga joriy etish maqsadida **buyuraman:**

1. Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tomonidan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining boshlang‘ich (1-4-sinf) sinflari uchun umumta’lim fanlaridan ishlab chiqilgan o‘quv dasturlarini muhokama qilish va amaliyotga tatbiq etilishi bo‘yicha 2023-yil 23-iyundagi yig‘ilish bayonnomasi hamda Respublika ta’lim markazining fan yo‘nalishlari bo‘yicha 2023-yil 25-martdagi bayonnomasida berilgan tavsiyalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining fan o‘quv dasturlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmalari boshliqlari fan o‘quv dasturlarini har bir ta’lim muassasalariga yetkazilishi hamda ta’lim jarayonlarini ushbu fan o‘quv dasturlari asosida tashkil etilishini ta’minlasin.

4. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**

Toshkent sh.,  
2023-yil 29-avgust,  
280-son



**X.Umarova**

**Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining fan o'quv dasturlari**

<b>T/r.</b>	<b>Fan o'quv dastur nomi</b>
<b>1-SINF</b>	
1	Ona tili
2	O'qish savodxonligi
3	Rus tili
4	O'zbek tili
5	Tarbiya
6	Matematika
7	Informatika va axborot texnologiyalari
8	Tabiiy fanlar (Science)
9	Musiqa madaniyati
10	Tasviriy san'at
11	Texnologiya
12	Jismoniy tarbiya
<b>2-SINF</b>	
1	Ona tili
2	O'qish savodxonligi
3	Rus tili
4	O'zbek tili
5	Tarbiya
6	Matematika
7	Tabiiy fanlar (Science)
8	Musiqa madaniyati
9	Tasviriy san'at
10	Texnologiya
11	Jismoniy tarbiya
<b>3-SINF</b>	
1	Ona tili
2	O'qish savodxonligi
3	Rus tili
4	O'zbek tili
5	Tarbiya
6	Matematika
7	Tabiiy fanlar (Science)
8	Musiqa madaniyati

9	Tasviriy san'at
10	Texnologiya
11	Jismoniy tarbiya
<b>4-SINF</b>	
1	Ona tili
2	O'qish savodxonligi
3	Rus tili
4	O'zbek tili
5	Tarbiya
6	Matematika
7	Tabiiy fanlar (Science)
8	Musiqa madaniyati
9	Tasviriy san'at
10	Texnologiya
11	Jismoniy tarbiya
<b>5-11-SINFLAR</b>	
1	Informatika va axborot texnologiyalari
<b>1-11-SINFLAR</b>	
1	Fransuz tili
<b>8-9-10-SINFLAR</b>	
1	Davlat va huquq asoslari
<b>8-SINF</b>	
1	O'zbekiston tarixi